

**DEVONU LUG‘OTIT TURK ASARIDAGI
AYRIM PARONIMLAR IZOHI**

*Sultonova Shahzoda Shuhrat qizi
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya. XI asrda yashab ijod etgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan turkiy urug‘ va qabilalar ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar bilan birqalikda paronimlar va uning tahlili haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: turkiy til, paronim, leksikografiya, etimologiya, polisemiya.

Har bir tilning o‘ziga xos sehri, lug‘at boyligi, morfologik, fonetik, sintaktik xususiyatlari, jozibadorligi bo‘ladi. Ayniqsa, tilning lug‘at boyligidagi eng qadimgi qism umumturkiy leksemalardan iborat. Bundan tashqari, bir necha xalqlar orasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar natijasida bir til qurilishiga xos birliklar ikkinchi tilga o‘tadi, shu tilga singib, uning boyligiga aylanadi. O‘zbek leksikografiyasini Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ushbu lug‘at faqat so‘zlar, ularning ma’nolarini tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlari, geografik joylashuvi kabi keng ma’lumotlar manbayi hisoblanadi. Shu bilan birga, u dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) lug‘atlardandir. “Devonu lug‘otit turk” da, ayniqsa, qabila va urug‘ tillariga oid lingvistik ma’lumotlar batafsil berilgan. Bunda har so‘zning ma’nolari (polisemiya, omonim, sinonim, paronim, antonim va arxaik so‘zlar) chuqur tahlil etish bilan ularning etimologiyasiga ham to‘xtalib o‘tish mumkin. Juhon tilshunosligida mazkur masalaga doir bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, V.V.Bartold, S.Volin, K.Brokkelman, V.I.Belyayev kabi olimlarning ishlari bu jihatdan xarakterli. Tilshunos olim V.I.Belyayev “Devonu lug‘otit turk” haqida shunday yozadi: “Biz bu asarga nihoyatda yuksak baho berishimiz kerak, chunki u kitoblardan olib yozilmagan, balki jonli materialni shaxsan kuzatishga asoslangan”¹. Muallif bergen ma’lumotlar, arxeologik kashfiyotlar keltirilgan fikrlarning aksariyatini isbot etmoqda.

Mazkur kitobga K.Brokkelman nemischa so‘z boshi ham yozgan. K.Brokkelman “Devonu lugotit turk” asarini til va adabiyot uchun ahamiyati haqida to‘xtalib, ko‘plab ilmiy-ommabop tadqiqotlarni amalga oshirgan. Xullas, bu ishlarni G‘arbiy Yevropada Mahmud Koshg‘ariyni keng jamoatchilikka tanitishda ijobjiy rol o‘ynaydi. Haqiqatdan ham, jahon ilmi va madaniyati tarixida bu xildagi asarlarning dastlabki namunalari sifatida “Devoni lug‘atit turk” asari katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbek tilshunosligida yaratilgan deyarli har bir tadqiqotda “Devonu lug‘otit turk”ga murojaat bor. O‘zbek tilshunos olimi S.Mutallibov o‘zining butun kuchg‘ayratini koshg‘ariyshunoslikka bag‘ishlab, “Devonu lugotit turk” haqida juda ko‘p ilmiy ishlarni monografiyalar yaratdi.

¹Kemal H. Karpat, Studies on Turkish Politics and Society:Selected Articles and Essays, (Brill, 2004), 441.

“Devonu lug‘otit turk”da tilshunoslikning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha tahlil obyektlarini uchratish mumkin. Xususan, maqolada asardagi paronimlarning ayrimlarini tahlilga tortish maqsad qilingan.

Shu o‘rinda paronym leksik birligining asosiy xususiyatlariga qisqacha to‘xtalib o‘tish joiz bo‘ladi. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘atida paronimga shunday ta’rif beriladi: *Paronimlar* (*yun. para - yonida + onyma - nom*). *Fonetik tarkibi boshqa-boshqa, talaffuzdagina o‘xshash, yaqin bo‘lib qoladigan so‘zlar: asr-asir, abzal-afzal, amr-amir kabi*.² Paronimlarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq, bunday masalalar tegishli ravishda nutq madaniyati va uslubshunoslik tomonidan o‘rganiladi. “Paronimlar” terminini, dastlab, Aristotel yasama so‘z ma’nosida taklif etgan. Badiiy adabiyotda, publisistikada, ommaviy so‘zlashuvda, matnning, nutqning ifodaviyligi va ta’sirchanligini oshirish maqsadida paronimlardan keng foydalaniladi.

“Devonu lug‘otit turk” asarida harakat va holat fe’llarini hosil qiluvchi paronimlar keltirgan. Quyida asarda uchraydigan ayrim paronimlar va ularning izohlariga to‘xtalamiz:

Jag‘ildi - jig‘ildi.

Jag‘ildi so‘zi *yomg‘ir yog‘dirildi* (jag‘mur jag‘ildi) degan ma’noda qo‘llanilgan. *Yog‘dirildi* so‘zida majhul nisbat qo‘shimchasi -il bilan Yaratgan tomonidan *yog‘dirilganligiga* ishora keltirilgan. VIII asrda arablar istilosidan so‘ng, islam dinining keng tarqalishi natijasida ko‘plab asarlarda buning ta’siri yaqqol namoyon bo‘ladi.

Jig‘ildi fe’li chekindi so‘zi ma’nosida berilgan: *Er ishtin jig‘ildi*, ya’ni odam *ishdan chekindi*. Boshqasi ham shunday, birov chekintirsa ham shu so‘z qo‘llaniladi. Bu fe’l o‘timli, ammo, o‘timsiz vazifada qo‘llanadi.

Jamandi - jumundi.

Jamandi *yamamoqchi* degan ma’noda qo‘llanilgan. Asar matnida *Er to ‘nin jamandi* deganda, *odam to ‘nini yamamoqqa kirishdi* tarzida berilgan. *Jumundi* ya’ni *ko‘rindi* so‘zi esa ma’nosida qo‘llanilgan: *Ol ko‘zin jumundi - u ko‘zini yumadiganday ko‘rindi*.

Jaradi - jiradi.

Jaradi fe’li asarda *yaradi*, *mos keldi* tarzida berilgan. Bunga misol tariqasida *ol nen anar jaradi - u narsa unga yaradi, mos keldi* deya aytish mumkin. Jaradi fe’li asosan biror bir kiyim mos kelishi ma’nosida qo‘llaniladi. Jaradi fe’lining paronimi **jiradi** esa *uzoqlashdi* degan ma’noni bildiradi: *Nen jiradi - narsa uzoqlashdi*.

Jarudi- jag‘udi.

Jarudi so‘zi rohatlandi, shodlandi ma’nolarida kelgan: *Er jarudi, jashudi - odam rohatlandi, shodlandi*. Jarudi so‘zi *yolg‘iz* o‘zi kelmaydi, ko‘p hollarda, *jashudi* so‘zi bilan birga qo‘llanadi. Odamning biror voqeа-hodisadan rohatlanishi aynan shu so‘z orqali ifodalanadi. **Jag‘udi** so‘zi esa *yaqinlashdi* degan ma’noni bildiradi: *Beg kelmagi jag‘udi - bekning kelishi yaqinlashdi*.

² A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, 2002).

Jug‘ruldi-jig‘rildi.

Jug‘ruldi so‘zi *qorildi* ma’nosida keladi: *Un jug‘ruldi - xamir qorildi*. Asarda bu fe’l haqida qorildi ya’ni ayollar tomonidan xamir qorildi deya ifodalangan. **Jig‘rildi** so‘zi *qaltiradi* degan ma’noni anglatadi: *Er tumlug‘qa jig‘rildi - odam sovuqdan qaltiradi*.

Serdi-sordi.

Serdi so‘zi qo‘pol so‘z so‘zlamоq ma’nosida berilgan: *Ol ani serdi – u unga qo‘pol muomala qildi, dag‘al so‘z so‘zlamоdi*. Asarda **serdi** fe’li arning ayoliga dag‘al so‘z so‘zlagani, qo‘pol muomala qilgани haqida qo‘llanilgan. **Sordi** so‘zi so‘radi deya qo‘llanilgan: *Er so‘z sordi - odam bir xabarni so‘radi*.

Turdi-terdi.

Turdi: At turdi - ot oriqlandi. Bu fe’l, asosan, hayvonlarga nisbatan qo‘llaniladi. **Terdi** so‘zi esa *to‘pladi* degan ma’noni bildiradi: Ol tashar terdi - u mol to‘pladi.

Chiladi-tiladi.

Tonug‘ chiladi - to‘nni nam qildi. Bu so‘z to‘nni nam qilib qo‘ydi yoki namlatdi deya berilgan. Chiladi fe’lining paronimi **tiladi** so‘zi *xohladi* deya ifodalanadi: *Tangri andag‘ tiladi - xudo shunday xohladi*.

Taridi-tiradi.

Taridi: *Ol tarig‘ taridi - u ekin ekdi*. **Tiradi** - *tirgov qo‘ydi*: *Ol qapug‘ tiradi - u eshikka tirgov qo‘ydi*. Shuningdek, Har bir nasrsaga tirgov qo‘yishga ham bu so‘z qo‘llaniladi.

Jog‘ladi-jig‘ladi.

Qadimgi turkiy tilda **jog‘ladi** so‘zi *taom bermoq* ma’nosida qo‘llanilgan. *Ul ulukka jog‘ladi - odam chaqirib, o‘lik uchun taom berdi*. Bu turklar odatidir. **Jig‘ladi** esa *yig‘lamoq* ma’nosida kelgan: *Og‘lan jig‘ladi - bola yig‘ladi*. Asar matnida keltirilgan she’rda ham mazkur so‘z foydalanilgan:

Jelkin bo‘lub barduqi
Ko‘nglum anar bag‘laju
Qaldim erinch qadg‘uqa
Jshim uzi jig‘laju.

Ma’nosi: seviklim safarga ketdi, mening dilim unga bog‘langan edi. Xuddi undan so‘ng qayg‘uga botgandek, uning orqasidan (tinimsiz) yig‘layman.

Turug‘sadi-qurug‘sadi.

Turug‘sadi – turmoq istadi: *Ol munda turug‘sadi - u bu yerda turmoq istadi*.

Qurug‘sadi so‘zi qurishga yuz tutdi degan ma’noni bildiradi. Shuning uchun ham me’dega qurug‘saq deb nom berilgan. Chunki u soat ba soat qurib, bundan taom yeishga istak qo‘zg‘alaydi.

Chog‘iladi-jag‘iladi.

Chog‘iladi: *Er chog‘iladi - odam baqirdi, chaqirdi*. Bu so‘z ba’zan *chag‘iladi* shaklida ham talaffuz qilinadi. Suv jag‘iladi – suv sharilladi. Bu so‘zni shag‘iladi va jag‘iladi shakllarida talaffuz qilish ham bor. She’rda shunday kelgan:

Qatunsini chog‘iladi
Tenut begin jag‘iladi

Kani aqip jag‘iladi
Bojun suvin qizil sag‘di.

Ma’nosi: Qatunsini - Tangut bilan Chin orasidagi bir shaharning nomi; shu joyda yashovchilar tangutlar bilan jang qildilar. Qatunsini xalqi baqirib, bo‘kirib, tangut xalqi va ularning begi bilan dushmanlashdi, hattoki, qonlari suv sharillagandek, sharillab oqdi. Bo‘yinlar qizil suv bilan, ya‘ni qon bilan sog‘ildi.

Umuman olganda, Mahmud Koshg‘ariy turkologiya fanining dastlabki ustozi bo‘ldi, turkologiyaning maxsus fan sifatida rivojlanishiga asos soldi. Shuning uchun ham u allaqachonlar jahon miqyosida buyuk olim sifatida tanildi. Uning “Devonu lug‘otit turk” asari turkologiyaning dastlabki namunasi sifatida o‘sha davr madaniy hayotida va tilshunoslik tarixida alohida sahifa ochdi. Asardagi paronimlar doirasida olib borgan bu kichik tadqiqotimiz keyingi ilmiy izlanishlarimizning ilk qadamlari hisoblanadi. Keyingi ilmiy izlanishlarimizda yanada chuqurroq ma’lumotlarni tayyorlashga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, 2002).
2. Kemal H. Karpat, Studies on Turkish Politics and Society:Selected Articles and Essays, (Brill, 2004), 441.
3. Devonu lug‘tit turk” O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti Toshkent- 1963.
4. Ozoda Nizomjon Kizi Anorqulova. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02_07-06
5. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
6. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.